

## Psixolog bilan uchrashuv

2018-yil 13-mart kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 3-talabalar turar joyida yashovchi talaba qizlarni muammolari bilan tanishish yuzasidan institutimiz psixologi Narmetova Yulduz Karimovna 3-talabalar turar joyiga tashrif buyurdilar.

Tashrif mobaynida yotoqxonada direktori Z.Yuliev, yotoqxonada mudiri I.Qurbonov hamda pedagog tarbiyachi A.Xayitovalar yotoqxonada yashovchi talaba qizlar bilan yakka tartibda suhbatlar uyushtirishdi.

Suhbat juda qizg'in va mazmunli bo'lib o'tdi hamda suhbat doirasida talaba qizlarning taklif va mulohazalari bilan tanishdilar.

Suhbat yakunida yotoqxonada yashovchi talaba qizlar institutimiz psixologi Yu.Narmetovaga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**